

**TALABA YOSHLAR TARBIYASINI VATANPARLIK TUYG'USI BILAN BOYITISH DAVR****TALABI****Ibragimova Shaxnoza Tulqinovna**

Navoiy davlat pedagogika instituti Pedagogika nazariyasi va tarixi mutaxassisligi  
magedstranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6583255>

Marralar qanchalik baland olinmasin, loyihalar qanchalik istiqbolli  
bo'lmasin, Vatanni sevadigan, chin yurakdan mehnat qiladigan  
fidoyi insonlarsiz ularni amalga oshirish imkonsiz.<sup>1</sup>

**Sh.M.Mirziyoyev.**

**ANNOTATSIYA:** Mazkur maqolada bugungi kunda yoshlar tarbiyasini vatanparvarlik tuyg'usi bilan boyitish nechog'lik zarurligi, vatanparvarlik tarbiyasini berishda amalga oshirishimiz lozim bo'lgan vazifalar, ushbu vazifalarni amalga oshirish natijasida erishishimiz mumkin bo'lgan yutuqlar yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Vatanparvarlik, ijtimoiy tarbiya, ma'naviyat, burch, mas'uliyat, egalik hissi, shaxs, motivatsiya, modernizatsiya.

Bugun biz uchun chinakamiga "Yangi hayot" boshlandi. Uyg'oq nazar bilan qaralsa, yurtimizning ko'rк-u tarovati kun sayin sayqal topib bormoqda. Shaharlarimizdagi "city" shaharchalar, ravon yo'llar – ko'priklar, metroning yangi yo'naliш yo'laklari, ko'p qavatli uyjoylar, tibbiyot yangiliklari, matbuot modernizatsiyasi, madaniyat, ta'lim-tarbiya sohasidagi tub islohotlar buning yaqqol namunasidir. Mamlakatimizning barcha jabhadagi dunyoviy ko'rsatkichlarini yuksaltirish barobarida Prezidentimiz talaba yoshlar tarbiyasini vatanparlik tuyg'usi bilan boyitishga ham alohida urg'u berdi. Xususan, Prezident Shavkat Mirziyoyev mamlakatimiz hayotidagi muhim voqyea – O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil

<sup>1</sup> Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimidagi ma'ruza. 2016 yil 7 dekabr/S.H.M.Mirziyoyev. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, – 2017. 48 b.



topganining 29 yilligi va Vatan himoyachilari kuni arafasida Qurolli Kuchlar Akademiyasiga tashrif buyurganlarida, shunday deya ta'kidlaydilar: **“O‘z farzandlarida yuksak vatanparvarlik ruhini kamol toptira olmagan davlat, qanday qudratli qurolga ega bo‘lmasisin, mudofaa qobiliyatini mustahkamlay olmaydi”<sup>2</sup>** degan birgina so‘zlari barchamizni yanada ogoh bo‘lishga undaydi, talaba yoshlar tarbiyasi yo‘lida alohida e’tibor qaratilishi lozim jihatlarni yodimizga soladi. Talabalarning qalbida milliy ruh, ona vatanga mehr va sadoqat,adolat tuyg‘usini har tomonlama kuchaytirish, qolaversa, buyuk ajdodlarimizga munosib avlod bo‘lishlari uchun barcha shart-sharoitlarni yaratib berishimiz kerak.

“Yoshlarimizni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bo‘yicha uzlucksiz olib boriladigan ishlar biz uchun dolzarb ahamiyatga egadir. Barchamizga ma’lumki, vatanparvarlik har bir davlat hayotining ma’naviy asosi hisoblanadi va jamiyat hayotini har tomonlama rivojlantirish borasida eng muhim safarbar etuvchi kuch sifatida namoyon bo‘ladi. Shuning uchun ham fuqarolarimizda bizga mutlaqo yot bo‘lgan zararli ta’sirlarga qarshi mustahkam immunitetni shakllantirish va vatanimiz taqdiri uchun mas’uliyat tuyg‘usini mustahkamlash bo‘yicha aniq chora-tadbirlarni ko‘rishimiz shart”<sup>3</sup>

Bu yo‘lda mamlakatimiz bo‘ylab Prezidentimiz boshchiligidagi juda katta safarbarlik e’lon qilinmoqda va pedagog xodimlar oldiga yuksak ma’naviyatli, qat’iy hayotiy pozitsiya, keng dunyoqarashga ega bo‘lgan fidoyi va vatanparvar talaba yoshlarni tarbiyalash; talabalarning huquqiy madaniyatini yuksaltirish, ular o’rtasida huquqbazarliklar va jinoyatlar sodir etilishining oldini olish; talabalarni yot g’oyalar ta’siridan himoya qilish, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, diniy bag’rikenglik va millatlararo totuvlik ruhida tarbiyalash talabini qo‘ydi. Shu nuqtai nazardan olib qaraganda, talaba yoshlar tarbiyasini vatanparvarlik tuyg‘usi bilan boyitish davr talabiga aylandi desak adashmagan bo‘lamiz.

Bugungi kunda global axborot makonidagi qarama-qarshilik, inson, ayniqsa yosh avlodning ongi va qalbi uchun kurashning kuchayishi sharoitida aynan vatanparvarlik tushunchasining roli

<sup>2</sup> Sh.M.Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil topganining 29 yilligi va Vatan himoyachilari kuniga bag’ishlangan tabrik nutqi. 2021-yil, 13-yanvar. Xalq so‘zi gazetasi.

<sup>3</sup> Sh.M.Mirziyoyev “Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz”. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, - 488 b.



va ahamiyati ortishi tabiiy. Misol tariqasida mitti go'dak xatti-harakatini kuzatsangiz ham uning zamirida "bu — meniki, menga tegishli" degan iddao yaqqol ko'rinish turadi. Qolaversa, xarxashalarining mohiyatida ham egalik hissini o'zida saqlab qolish maqsadi hukmron bo'ladi. Demak, biz bo'lajak pedagoglardan talab bitta, u ham bo'lsa, talabalardagi "Egalik hissi"ni yuksaltirish, bu yo'ldagi ishlarimizga vatanparvarlik ruhini dadil singdirishdan iboratdir.

Bu maqsadimizga esa quyidagi vazifalarni amalga oshirish natijasida erishishimiz mumkin:

- Oiladagi qadriyatlar tizimini vatanga muhabbat tushunchasi bilan boyitish;
- Ta'lim-tarbiy jarayonida milliy qahramonlariz siymolari va jasoratlarini namuna qilib ko'rsatish orqali yoshlar ongidagi vatanparlik tuyg'usiga motivatsiya berish;
- Vatanparvarlikning kundalik hayotdagi ko'rinishlari(harbiy xizmat, milliy urf odatlar, milliy madaniyat)ni hayot tarziga faol ko'chirish orqali modernizatsiya qilib borish;
- O'z mamlakatining yutuqlari bilan faxrlanish va jamiyat hamda mamlakat hayotining barcha jabhalari bilan bog'liq axborotlarga qiziqishni oshirish;
- O'z vatani (qishloq, shahar, ko'cha) bo'ylab sayohat qilish.

Ushbu vazifalarni samarali amalga oshirish natijasida shakllangan vatanparvarlik tuyg'usi natijasida esa biz quyidagilarga ershamiz:

- Vatanparvar shaxs orqasida uning yuzlab avlodlari ajdodlari ko'rinas holda turishini anglashdan kuch oladi;
- Vatanparvar shaxs o'z yurtining yutuqlari va muvaffaqiyatlarini anglashdan faxrlanadi;
- Vatanparvar shaxs – oila, xalq va vatan taqdiri uchun mas'uliyatli bo'ladi;
- Vatanparvar shaxs o'z mamlakati manfaati uchun vijdonan harakat qiladi;
- Vatanparvar shaxs - mamlakat tarixi, an'analari va madaniyatiga hurmat ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, yoshlar tarbiyasini vatanparlik tuyg'usi bilan boyitishda shaxs birlamchi sub'ekti bo'lib, vatanparvarlik uning ustuvor ijtimoiy-axloqiy vazifasidir. U ushbu vazifani ongli anglagan holda kundalik turish-turmushiga, xatti-harakatiga va dunyoqarashiga olib kirishi zarur. Chunki, vatanparvarlik tuyg'usining yuksak darajada rivojlanishini anglash uning voqeligi bilan uzviy bog'liq holda kechib, u yanada konkret ma'noda faol ijtimoiy faoliyatda, sub'ektning vatan manfaati yo'lida amalga oshirayotgan harakatlarida namoyon bo'ladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:**

1. Sh.M.Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil topganining 29 yilligi va Vatan himoyachilari kuniga bag`ishlangan tabrik nutqi. 2021-yil, 13-yanvar. Xalq so`zi gazetasи.
2. Sh.M.Mirziyoyev "Buyuk kelajagimizni mard va olajanob xalqimiz bilan birga quramiz". – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, - 488 b.
3. SH.M.Mirziyoyev "Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi". O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag`ishlangan tantanali marosimidagi ma'ruza. 2016 yil 7 dekabr. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, – 2017. 48 b.
4. R.Mavlonova, O.To`raeva, K.Xoliqberdiev. Pedagogika. -T., "O`qituvchi", 2019.
5. S.X.Qodirova, R.M.Nazarova "Milliy istiqlol g`oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar". – Toshkent: "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti", - 2003.
6. [www.my.gov.uz](http://www.my.gov.uz)
7. [www.ziyo.uz](http://www.ziyo.uz)